



SUVNI BEHUDA ISROF BO'LISHI MUAMMOSINING DUNYO MAMLAKATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Ismoilova Nafisa Isroil qizi

Uchquduq tuman Kasb-hunar maktabi

Fizika va astronomiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada suvni behuda isrof bo'lishi muammosining dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri, suvdan to'g'ri, samarali foydalanish va uni behuda sarf bo'lishini oldini olish, global bo'lgan suv muammosi masalalariga oqilona yechim topish to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ichimlik suvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tirik organizmlar, global tanqislik, suv inshootlari, biofizik jarayonlar.

Kirish:

Ma'lumki, suv tabiatda keng tarqalgan hisoblanib, u tiriklikning muhim bo'lgan bebaho boylikdir. Suv butun jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tinchligi va atrof-muhitni himoya qilishning muhim omillaridan biridir. Yer yuzidagi hech bir tirik organizm suvsiz yashay olmaydi, sababi undagi to'qimalarning muhim qismini suv tashkil etadi. Masalan, 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan kishilarning organizmida gavda og'irligining 61% ni suv tashkil qiladi.

Odam tanasidagi suvning 70% hujayra protoplazmasini, 23% to'qimalararo suyuqlikni, qolgan 7% esa qon plazmasini hosil qiladi. Organizmda suvning bir yo'la 10% ga kamayishi inson turli xil kasalliklarga uchrashiga olib keladi, uning 20-25% ga kamayishi esa kishini halok bo'lishiga sabab bo'ladi. Suv ayniqsa suvda



yashovchi hayvonlar tanasida ko'pdir yoki, meduzada gavda og'irligining 99,7% ni tashkil qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Tirik organizmlarda kechadigan hamma hayotiy jarayonlar suvning ishtirokida suyuqlik sharoitida kechadi. Binobarin, qabul qilingan ozuqa mahsulotlari, shuningdek kislorodning parchalanishi va ularning to'qimalarga yetkazib berilishi hamda to'qimalarda hosil bo'lgan chiqindilarning tashqi sharoitga chiqarib tashlanishi kabi murakkab biokimyoviy va biofizik jarayonlar suv orqali amalga oshadi.

Jahon mamlakatlarida keyingi vaqtda tez-tez takrorlanadigan qurg'oqchilik kabi masalalarga duch kelmoqda. Jamiyat esa suv masalalarini hal qilish va suv taqchilligini kamaytirish uchun qat'iy choralarni amalga oshirish kerakligini tushunib yetmoqda. Suvning tabiat va inson hayotidagi o'rniga kelsak, yashash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, munosib turmush kechirish va insoniyat rivoji uchun kerak bo'lgan resurs sanaladi. Hozirgi vaqtda dunyoda suvni foydalanish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Natijalar:

Global tanqislik -taxminan 2,5 milliard odam suv tanqisligi yuqori bo'lgan mintaqalarda yashaydi. Zotan, suvning yuqori zaxiralari bo'lgan taqdirda ham, taqsimot yoki undan foydalanishning iqtisodiy va texnik imkonsizligi sababli tanqislik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, sifatli ichimlik suvi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, tanqislikning kuchayishi ko'p vaqtlarda iste'mol qilinadigan suvning juda kamligidandir. Venesuela va Peru kabi chuchuk suv zaxiralari ega bo'lgan davlatlarda suv tanqisligining dolzarb masalalariga duch kelishmoqda.



Suv tanqisligi masalasini hal etish inson taraqqiyotiga doimiy yondashuvning bir qismi hisoblangan o'zaro bog'liq bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Birinchi harakat bu masalaning mavjudligi, uning jiddiyligi, sabablari, oqibatlarini va mumkin bo'lgan yechimlari haqida xabardorlikni oshirishdir. Suvni muhofaza qilish haqida xabardorlik nafaqat uning saqlanishiga yordam beradi, balki boshqa choralar ko'rilishi uchun yordam beradi.

Muhokama:

Fuqarolar suv resurslaridan oqilona foydalanib, faqat kerakli miqdordan foydalanib, o'zlarining muhim hissalarini qo'shishlari mumkin. Ochiq kranlar, suv oqadigan quvurlar, suvni ifloslantiruvchi mahsulotlardan foydalanish, bularning hammasi suv tanqisligini kuchayishiga sabab bo'ladi. Ichimlik suvi tanqisligini rag'batlantiruvchi omillardan biri bu chuchuk suv manbalarining ifloslanishidir. Daryolar, ko'llar va yer osti suv qatlamlarining ifloslanishi odamlarning iste'mol qilishi, qishloq xo'jaligi va chorvachilik uchun kerak bo'lgan suv miqdorini kamaytiradi.

Yer yuzi aholisini to'ydirish suvga ortib borayotgan ehtiyoj hisob kitoblari suv- yer resurslari va ekotizimlarni integratsiyalashgan boshqaruvning kelajakdagi masalalari ko'lamini o'zgarayotgan dunyoda yashashga puxta tayyorlanish zarurligidan dalolat bermoqda. Hozirgi vaqtda sayyoramizning 8mlrd aholisi suvdan qanday foydalanish to'g'risida yakdil qarorga kelishi darkor.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, global bo'lgan suv masalasi muammolariga oqilona yechim topish uchun dastlab birdamlik kerak. Hozirgi vaqtda mana shu masalalar bo'yicha O'zbekistonda ko'pgina tadqiqotlar olib



borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar doirasida resurs tejankor qurilmalar, suvni tejash, undan samarali foydalanishga imkon yaratuvchi gidrotexnik inshootlardagi turli aqlli suv o'lchash asboblari, suv tozalash inshootlari, suv hisobini to'g'ri yuritishda suv balansi hisobi bo'yicha tavsiyalar taklif qilingan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A. M. Arifjanov, T. U. Apakhujayeva, S. N. Xoshimov, F. K. Babajanov/ Suv omborlar gidravlikasi/ O'quv qo'llanma, T-2023.,

2. "Suv resurslari va suvdan tejimli foydalanish". F.A. Bazayev, B.S. Serikbayev, R.X. Bazargov, S.B. G'ulomov, S.N. O'ribnayev, N.O. Shaymov, A.B. Mamasoliyev. Elektron darslik. 2019.

3. Muradov Sh.O., Valiyev X.I., Xolbayev B.M. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. - T., «Aloqachi», 2007.

4. Xolliyev I., Ikromov A. Ekologiya. O'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. - Tashkent: Mehnat, 2001.